


AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR

АГРОБИЗНЕС, НАУКА
И ТЕХНОЛОГИИ

AGRIBUSINESS,
SCIENCE AND
TECHNOLOGY



ILMIY - AMALIY
ELEKTRON JURNAL

№ 083688



Platform &
workflow by
OJS / PKP

ISSN: 3060-5245

TOSHKENT - 2026

M U N D A R I J A

IQTISODIYOT FANLARI

OCHILOV ILHOM SAYITQULOVICH, IKROMOV ZIYODILLA DILSHOD O'G'LI

Qishloq xo'jaligida raqamli transformatsiya jarayonlari orqali samaradorlikni oshirish mexanizmlari.....15

MEXMONALIYEV ULUG'BEK ERKINJON O'G'LI

Yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida korxonalarda ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirish yo'llari.....22

RO'ZIBOYEVA MUSHTARIY OTABEK QIZI

Mintaqalararo iqtisodiy tafovutlarni aniqlash va ularning dinamikasini baholash usullari.....33

КУРПАЯНИДИ КОНСТАНТИН ИВАНОВИЧ

Экономические перспективы интеграции искусственного интеллекта в промышленность Узбекистана.....43

SAYITQULOV JAHONGIR ILHOMOVICH

Bank faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar ta'sirining ekonometrik tahlili.....52

NORBOYEVA SHAHNOZA AKBAR QIZI

Tijorat banklarida risk boshqaruvi tizimini takomillashtirish.....60

ZOIROV G'OLIBJON TOSHTEMIR O'G'LI

Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy salohiyatini integral indekslar asosida baholash va tahlil qilish.....69

SHOKIROV OYBEK SHOKIR O'G'LI, XALIMOV JAVLONBEK SHAHRIYOROVICH

Ziyorat turizmi destinatsiyalarida raqamli texnologiyalar foydalanish.....76

УСМАНОВА ДИЛАФРУЗ КАРШИЕВНА, БОЗОРОВА ФАРАНГИЗ ШЕРЗОД КИЗИ

Платформенные решения в продвижении национального туризма.....86

ALLAYOROVA DILDORA JAVLONBEK QIZI

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida galenteriya mahsulotlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish istiqbollari.....96

XUDOYAROV LOCHINBEK BAHROMOVICH

Raqamli texnologiyalar asosida xizmatlar sifatini boshqarish amaliyoti.....108

XAMIDOV JAVOXIR SHAVKAT O'G'LI

Buxgalteriya ma'lumotlari asosida audit natijalarini diagnostik tahlil qilishning nazariy-metodologik asoslari.....428

AYUBOV ILYOS ILXOMOVICH

Turizm sohasini rivojlantirishda innovatsion jarayonlardan foydalanishning nazariy metodologik jarayonlari.....434

BEGLAYEV UCHQUN XURRAMOVICH

Baliq mahsulotlarini ishlab chiqarishda ilg'or texnologiyalardan foydalanishning iqtisodiy samarasi.....440

BEKJANOV DILMURAD YO'LDASHOVICH

Qishloq xo'jaligi oziq-ovqat ta'minot zanjirida ishlab chiqarish omillari elastikligini ekonometrik baholash.....451

KINJAYEV KATTAKUL NURMATOVICH

Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta'minlash yo'llari: riskka mos daromadlilik yondashuvi.....457

QODIROV HASAN DO'STQOBILOVICH

Davlat miloyasini boshqarish samaradorligini oshirishda budjet-soliq siyosati instrumentlaridan foydalanish mexanizmlari.....462

JAHONGIR NURULLOYEVICH JURAYEV

G'aznachilik tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etishining yangi yo'nalishlari.....467

MARKSOV ABROR XURMATBEK O'G'LI

Xorazm viloyatida investitsiyaviy diversifikatsiya mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....474

IGAMOVA SHAXINYA ZIKRILLOEVNA

Qo'shilgan qiymat zanjiri asosida qurilish materiallari sanoati klasterlarini rivojlantirishning iqtisodiy samarasi.....480

TOSHBOYEV ABDURAIM JABBOROVICH, TOJIEV ABDULAZIZ RASULJON O'G'LI

Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etish samaradorligi.....488

JUNAYDULLAEV MELS ASLIDDIN O'G'LI

Individual sportchilarni tayyorlash tizimi boshqaruvida foydalanilayotgan raqamli ta'lim texnologiyalari tahlili.....494

BOZOROVA NARGIZA TOLIBJONOVNA

Hududiy sanoat zonalarining investitsion jozibadorligini kompleks baholash modeli (Buxoro viloyati misolida).....500

**BALIQ MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA ILG'OR
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARASI****BEGLAYEV UCHQUN XURRAMOVICH**Toshkent davlat agrar universiteti
Agrobiznesni boshqarish va logistika
kafedrası dotsenti i.f.f.d. (PhD)E-mail: beglayevuchqun@gmail.com

ORCID: 0009-0008-9491-6613

Annotatsiya. Maqolada turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik subyektlarining baliq va baliq mahsulotlarining ishlab chiqarish ko'rsatkichlari qayd etilgan bo'lib, Shuningdek, baliqchilikda innovatsion va intensiv texnologiyalarning sohada tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'llari bo'yicha tavsiyalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, intensiv, baliq hajmi, tahlil, turli mulkchilik shakli, loyiha, ishlab chiqarish, tejamkor texnologiya, rivojlantirish, soha rivoji.

Аннотация. В статье описаны производственные показатели рыбы и рыбной продукции рыбопромышленных предприятий различных форм собственности, а также даны рекомендации по роли инновационных и интенсивных технологий в рыбопромышленном секторе и путям их развития.

Ключевые слова: технология, интенсивный, размер рыбы, анализ, различные формы собственности, проект, производство, экономически эффективная технология, развитие, развитие отрасли.

Abstract. The article describes the production indicators of fish and fish products of fishery entities of various forms of ownership, and also provides recommendations on the role of innovative and intensive technologies in the fishery industry and ways to develop them.

Keywords: technology, intensive, fish size, analysis, various forms of ownership, project, production, cost-effective technology, development, industry development.

KIRISH

Yangi O'zbekistonda qishloq xo'jaligini rivojlantirish hamda sohani isloh qilish jarayonida baliqchilik xo'jaliklarini respublikada alohida o'rin tutishi bilan bir qatorda, intensiv baliqchilikni rivojlanishi yurtimiz aholisining baliq mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish bilan bir qatorda yetishtirish hajmining oshishiga olib keladi.

Intensiv baliqchilik xo'jaliklarini respublika bo'yicha faoliyat olib borilayotgan xo'jaliklar kesimida ko'rib chiqadigan bo'lsak, sohada o'tgan besh yil ichida katta o'zgarishlar bo'lganinin ko'rishimiz mumkin.

Intensiv baliqchilik xo'jaliklarini ko'payishi quyidagi imkoniyatlarga keng yo'l ochib beradi:

intensiv baliqchilikning rivojlanishi tabiiy va sun'iy suv havzalarida tizimli baliq yetishtirish uchun qulay sharoitning shakllantirillishi hamda qimmatli baliq turlarini ko'paytirishni yo'lga qo'yish imkoniyatini shakllantirillishi;

lichinka ishlab chiqarish bo'yicha yangi inkubatsiya sexlarini tashkil etish, baliq chavoqlari yetishtirish hajmlarini ko'paytirish, baliq chavoqlari yetishtirish bo'yicha mavjud hovuzlarni modernizatsiya qilish va kengaytirish;

suv havzalarini doimiy nazorat qilish klasterlar, fermer xo'jaliklari bilansamarali hamkorlikni ta'minlash;

baliq yetishtirishning zamonaviy texnologiyalarini, shu jumladan, qafas usulini keng joriy etish hamda tabiiy va sun'iy suv havzalarda mahsuldorlikni ko'paytirish hisobiga baliq ovlash hajmlarini oshirish;

baliqlar uchun to'la qiymatli, yuqori oqsilli ozuqalar ishlab chiqarish uchun yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va mavjudlarini modernizatsiya qilish yo'li bilan baliqchilik tarmog'ining ozuqa bazasini mustahkamlash va h.

Bizning fikrimizcha yuqorida keltirib o'tilgan imkoniyatlarning keng qo'llanishi intensiv baliqchilikning mustaqil xo'jalik subyektlarining tubdan yangilanishiga olib keladi.

Intensiv baliqchilik xo'jaliklari negizida baliqlar uchun boyitilgan omuxta-yem ishlab chiqarish sexi hamda zamonaviy texnologiyalarga servis hizmatini ko'rsatish tashkil etilsa xo'jaliklar zamonaviy texnologilar hamda ozuqa bazasini to'liq nazorat qila olar edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik subyektlarini barqaror rivojlantirish ularni tizimli va samarali boshqarish mexanizmini takomillashtirish, sohani intensiv va innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish muammolari bo'yicha mamlakatimiz va xorijiy davlatlar iqtisodchi olimlari turli yo'nalishda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishgan. Jumladan, xorijiy davlatlar olimlari: F.Berkis, R.Maxon, M.Solomon, R.Xilborn, P.Daniyel, F.Rayner, F.D.Jonston, A.S.Tommas, S.Hammerland, K.Greyer, J.Mattias baliqchilikni barqaror rivojlantirish va boshqarishda MDH davlatlari olimlaridan: S.I.Kurdyukov, A.K.Bogeruk, Dj.Riter, O.V.Kuznetsova, N.V.Alesina, R.R.Galuliniya, J.M.Gordon, A.A.Tarassenko, V.S. Kazancheva, D.SH.Yakubova va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borgan, hamda bu boradagi ayrim masalalar mamlakatimiz agrar iqtisodchi olimlaridan: D.R.Shoximardonov, I.O.Yunusov va boshqa olimlarning ilmiy asarlarida qisman o'rganilgan hamda tadqiq etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Baliqchilikda mahsulot ishlab chiqarishda ilg'or texnologiyalardan foydalanishning iqtisodiy samarasini tahlil qilishda mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida 2024 yilda 581 ming gektar suv havzalaridan baliq yetishtirishda foydalanilgan bo'lsa, jami 3681 ta baliqchilik xo'jaliklari faoliyat yuritgan. 2023 yilga kelib, 3751 ga yaqin baliqchilik xo'jaliklari tashkil etildi. 2022 yilda 177 ming tonna baliq yetishtirilgan bo'lsa, 2023 yilning oxiriga

kelib, ushbu ko'rsatkich 180 ming tonnaga yetkazildi. Baliqchilikni yanada rivojlantirish uchun bir qator juda muhim muammolarni, xususan, baliqchilik xo'jaliklarining barqarorligi, boshqarish mexanizmini ishlab chiqish kerakligi, eng muhimi, ularning samaradorligini oshirish bilan bog'liq masalalarni hal qilishni qat'iy talab etmoqda. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, baliq yetishtirish hajmini keskin oshirish va intensiv texnologiyalarning ulushini ortib borishini ta'minlash bugungi kunning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan izchil islohatlarining samarasi baliq yetishtirish hajmining ortishi bilan bir qatorda intensiv baliqchilikni rivojlantirish ham asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda (1-jadval).

1-jadval

2023-2025 yillarda intensiv baliqchilikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan loyihalar to'g'risida ma'lumot

№	Hududlar	Qafas (sado) moslamasida			Intensiv kichik suv xavzalarida			Yopiq suv aylanma tizimida (UZV)			Jami ish o'rinlari
		qafas soni	yetishtirilgan (tonna)	yangi ish o'ri	maydon, ga	yetishtirilgan (tonna)	yangi ish o'ri	loyiha soni	xajmi, tonna	yangi ish o'ri	
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	100	150	5	15	1000		1	300	3	56
2	Andijon				6	600	2	1	500	7	84
3	Buxoro	80	110	4	3	300	7	1	400	20	127
4	Jizzax	70	120	4	6	600	14	1	300	7	34
5	Qashqadaryo	50	70	7	6	600	72	1	300	7	105
6	Navoiy	50	80	26	6	600	60	1	200	7	117
7	Namangan	160	220	16	6	600	14	1	300	7	54
8	Samarqand	100	150	10	6	600	12	1	300	2	30
9	Surxondaryo	50	75	3	6	600	14	1	300	7	42
10	Sirdaryo				6	600	20	1	300	5	44
11	Toshkent	2179	3965	116	6	600	38	1	300	20	194
12	Farg'ona	170	280	9	6	600	15	1	400	2	68
13	Xorazm				6	600	14	1	400	2	109
14	Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi	231	750	12							35
	Jami	3240	5970	212	84.0	7900	307	13	4300	96	1100

1-jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, qafas moslamasining soni 2025 yil mobaynida 3240 tani tashkil etgan bo'lib, ushbu moslamalarda yetishtirilgan baliq hajmi 5970 tonnani tashkil etgan. Shu bilan birga, 212 ta ish o'ri yaratilishiga erishilgan. Intensiv kichik suv havzalarining maydoni respublika bo'yicha 84,0 ga maydonni tashkil etib, 7900 tonna baliq yetishtirishga erishilgan. Yopiq suv aylanma tizimi (UZV) bo'yicha respublikada 13 ta loyiha amalga oshirilgan bo'lib, 4300 tonna baliq yetishtirish imkonini yaratilgan. Umumiy hisobda 1100 ta ya'ni ish o'ri yaratilishi hamda intensiv baliqchilikni keng targ'ib etish lozimligini ko'rsatib bermoqda.

Baliqchilik sohasini jadal rivojlantirishda turli mulkchilik subyektlari oldiga eng muhim maqsadlardan biri qilib – baliq mahsulotlari hajmini oshirish, bozor munosabatlaridan kelib chiqib, baliq mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish va aholining ishsiz qatlamini band qilish masalalarini qo'yish lozim. Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqib, xo'jalik subyektlari o'rtasidagi raqobatbardoshligini oshirish maqsadida quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- fermer, dehqon xo'jaliklari, MCHJlar, klasterlar ishchi hodimlar va mutaxassislarining bilimi, saviyasi va malakasini uzluksiz oshirib borish;
- yuqori sifatli baliq mahsulotlarini yetishtirishga imkon beruvchi seleksiya, urug'chilik va ozuqa bazasini mustahkamlash ishlarini tashkil qilish;
- raqobatbardosh baliq mahsulotlar yetishtira oladigan zamonaviy va intensiv texnologiyalarga asoslangan tizimni ishlab chiqish va yangi qayta ishlash korxonalarini ishga tushirish, mavjudlarini texnik yangilash va modernizatsiyalash;
- ichki bozorni to'liq ta'minlash bilan birga baliq mahsulotlarini eksport qiladigan xo'jalik subyektlarini boshqarishda yuzaga keladigan tashkiliy muammolarni bartaraf etish hamda imtiyozlar tizimini ishlab chiqish;
- turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik xo'jaliklari baliq mahsulotlarini sotish bo'yicha ichki va tashqi bozorlarni o'rganuvchi marketing xizmatlarini rivojlantirish;
- baliq mahsulotlarini sifatini yo'qotmagan holda saqlashga imkon beruvchi saqlash omborxonalariiii sonini hamda ular sig'imini kengaytirish;
- fermer va dehqon xo'jaliklarini to'g'ridan-to'g'ri klasterlar tarkibida axborotlar bilan ishlovchi bo'limlar faoliyatini yo'lga qo'yish.

Shu bilan bir qatorda baliqchilik xo'jaliklarini tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish ularda mavjud muammolarni hamkorlikda bartaraf etish lozim bo'ladi (2-jadval).

Turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik xo'jaliklarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlaridan samarali foydalanish uchun ularni shakllantirish jarayonida tizimning barcha qatnashuvchi subyektlari faoliyatini optimallashtirishga e'tibor qaratish zarur hisoblanadi. Bunda tashkil etilayotgan subyektlar nisbatan bir xil shaklda tuzilishiga e'tibor qaratish lozim. Turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik xo'jaliklarini tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ularning faoliyatida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etilishi davlat tomonidan to'liq tartibga solish lozim bo'ladi. Baliqchilik xo'jaliklar o'z faoliyatida suv resurslarning holatini muntazam nazorat qilib borish va qayta ishlanadigan baliq mahsulotlari yetishtirishga harakat qilish, yetishtirilgan baliq mahsulotlarini tashish jarayonlarini oqilona tashkil etish, sifat darajisini buzmaslikka e'tibor berish, baliq mahsulotlarini saqlashni tashkil etish davrida kompleks tadbirlardan foydalanish, ya'ni saqlash, saralash va qadoqlash ishlarini kompleks ravishda tashkil etish, mahsulotlarni sotishga chiqarish, barcha jarayonlarda avtomatik nazorat vositalaridan oqilona foydalanish, baliq

mahsulotlarning sifatini muntazam ravishda nazorat ishlarini amalga oshiruvchi relemoslamalardan unumli foydalanish, sotilgan mahsulot uchun olingan daromadlarni tizimning barcha ishtirokchi subyektlarining faoliyatda qatnashish ulushiga mos ravishda taqsimlash vazifalarini amalga oshirish va barcha ishtirokchilar faoliyatida fan-texnika yutuqlaridan foydalanishni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

2-jadval

Turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik xo'jaliklarining tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish maqsadida uch tomonlama kelishuv shartlari

Tartibga soluvchi hokimiyat organlari		Turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik xo'jaliklari
Qishloq xo'jalik vazirligi	Viloyat hokimligi	
Ichki va tashqi bozorni hisobga olib baliq yetishtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish	Qulay investitsiyaviy muhit yaratish	Hamkor mahsulot yetishtiruvchilarni bo'nak mablag'lari bilan ta'minlash
Davlat tomonidan moliyaviy ko'mak va kreditlar ajratilishiga yordam berish	Infratuzilmalarga (elektr energiya, yo'l, suv, intensiv texnologiya, ozuqa, mineral o'g'itlar) ulanishini tashkillashtirish	Intensiv texnologiyalarni uzluksiz joriy etish va hamkor korxonalarga amaliy yordam ko'rsatish
Intensiv va innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha olim va mutaxassislarni jalb etib o'quv kurslari tashkil etish	Suv havzalari va bo'sh turgan obyektlardan foydalanishda shart-sharoit yaratish	Baliq mahsulotlarini saqlash va chuqur qayta ishlash bo'yicha investitsion loyihalarni amalga oshirish
Xo'jaliklar yetishtirayotgan baliq mahsulotlarini realizatsiya qilishlari uchun "yashil yo'lak" yaratish	Mahsulot yetishtirish uchun zaruriy resurslarning uzluksiz yetkazilishini nazorat qilish	Seleksiya, yetishtirish, saqlash, qayta ishlash, bozorga yetkazishning uzluksiz zanjirni yaratish
Xalqaro standartlar va sertifikatlarni joriy etishda amaliy yordam ko'rsatish	Xo'jaliklar bilan resurs ta'minoti tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlarni mufoviqlashtirish	Baliq mahsulotlarini qayta ishlash va eksport prognozlarini bajarilishini ta'minlash
"Turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik xo'jaliklar maqomi va ularning faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash va monitoring olib borish	Baliq mahsulotlarini yetishtiri va sotishgacha bo'lgan jarayonda "Vazirlik" bilan hamkorlikda tadbirlarni amalga oshirish	Faoliyati bo'yicha ma'lumotlarni yuqori turuvchi organlarga taqdim etib borish

Tadqiqotlarimiz davomida 1 kg baliq mahsuloti yetishtirishda hamda xo'jalik samardorligiga juda ko'p omillar ta'sir qiladi. Bular, yukori samarali resurs tejamkor texnologiyalar, moddiy-texnika bazasi bilan ta'minlanganlik, ishlab chiqarish jarayonlari intensiv va innovatsion texnologiyalar asosida yo'lga qo'yilganligi, ishlab chiqarish jarayonlarini qay darajada ilmiy asoslangan tarzda

olib borilayotganligi, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan malakali kadrlar bilan ta'minlanganlik, iqtisodiy munosabatlarda va boshqarishda zamonaviy menejment hamda marketing uslublarini qanchalik keng joriy etilganligi va boshqa omillarni o'z ichiga oladi. Shu boisdan, baliq yetishtirishda to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi omillarni bir tizimga keltirish samaradorlikni real baholash imkonini beradi. Biz ushbu omillarni iqtisodiy va tashkiliy jihatlarini inobatga olgan holda boshqaruv mexanizmlariga ta'sir etishi bo'yicha asosiy yo'nalishlarini belgilab oldik Jumladan;

Iqtisodiy yo'nalishda: turli mulkchilik shaklida faoliyat yuritayotgan baliqchilik subyektlarida zamonaviy menejment mexanizmini va raqamli marketing uslublarini keng joriy etilishi;

moliyaviy jarayonlarni tashkil etishda uzoq muddatli strategik rejalar tuzilganligi va prognoz ko'rsatkichlarining mavjudligi;

xo'jaliklarda xorijiy investitsiyalarni to'g'ridan to'g'ri jalb qilinishi;

xo'jaliklar uchun kredit, soliq, sug'urta tizimini iqtisodiy kategoriyalar mezoniga asosan imtiyozlarning qo'llanishi;

baliqchilik sohasida malakali xodimlarni jalb qilinishi va ularni mexnati yuqori darajada rag'batlantirilishi;

baliq yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va sotish bo'g'inlarining o'zaro iqtisodiy manfaat asosida kooperatsiya va klaster munosabatlarini joriy etilganligi va boshqalar.

Tashkiliy yo'nalishda: qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilab berilgan, zamonaviy yo'nalishdagi komplekslarni tashkil etish hamda rivojlantirishni ta'minlash;

soha uchun malakali, zamonaviy, yuqori salohiyatli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan tizim mutaxassis kadrlarini ko'paytirish va soha yo'nalishlariga birlashtirish;

zamonaviy boshqaruvning iqtisodiy metodlarini keng joriy etilganligi va xorij modellariga asoslanganligi;

zamonaviy logistik zonalar va innovatsion saqlash omborlarining joriy etilganligi;

turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik subyektlarini tashkil etishda mahalliy hokimyat organlari, hususiy sektor rahbarlarining bevosita ishtiroki ta'minlanganligi;

Mavjud resurslardan oqilona foydalanish yo'nalishida: baliq yetishtirishda xalqaro standartlarga javob bera oladigan moddiy texnika bazasining shakllanganligi;

innovatsion va intensiv texnologiyalarning (qavaslar, UZV, aerator) joriy qilinganligi;

sohada yangi texnologiyalarning kirib kelishi, mavjud texnika va uskunalarni yangilanib borish darajasining yuqoriligi;

mavjud suv va boshqa resurslardan samarali foydalanilishi va boshqalar



Innovatsion texnologiyalar joriy etilishi yo'nalishida: baliqlarning yangi turlarini yaratish seleksiyasi va ozuqa bazasi uchun innovatsion texnologiyalarni keng joriy etilishi;

ishlab chiqarish jarayonlarida "aqlli qishloq xo'jaligi" elementlarining tadbqiq etilishi;

innovatsion texnologiyalar asosida robotlashgan tizimning joriy etilishi;

suv, tuproq, havo tarkibini aniqlashda geoaxborot tizimini joriy etilishi va uslubiy ko'rsatgichini baholash darajasining yuqoriligi;

baliq va baliq mahsulotlarini ishlab chiqarishda diversifikatsiyalash tadbirlarini keng joriy etilishi va boshqalar.

Bundan tashqari, turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik subyektlari baliq yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va sotish kabi o'zaro uzviy bog'liq bo'g'inlardan iboratligi sababli uni iqtisodiy samaradorligiga baho berishda xar bir bo'g'in uchun alohida yondoshuv asosida ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur bo'ladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, baliq yetishtirish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari ham samaradorlik ko'rsatkichlariga baho berishda ham alohida yondashishni taqozo etadi.

Biz ushbu ma'lumotlarni tahlil qilganimizda aholi sonining ortib borishini hisobga olib, baliqchilik xo'jaliklari tomonidan zamonaviy intensiv texnologiyalarni joriy etishi va baliq mahsuloti yetishtirish ko'rsatkichlarini ortishini kuzatilgan. Chorvachilik sohasida olib borilgan iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar hamda sohani diversifikatsiyalash natijasida mamlakatimizda 2023 yilda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 364,5 trln. so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 352,1 trln. so'mni, o'rmon xo'jaligi – 9,2 trln. so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 3,2 trln. so'mni tashkil qildi. Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilganimizda 95,2 % i dehqon va shaxsiy yordamchi xo'jaliklar hissasiga, 2,9% i fermer xo'jaliklar, 1,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda 581 ming gektar suv havzalaridan baliq yetishtirishda foydalanilgan bo'lsa, jami 3681 ta baliqchilik xo'jaliklari faoliyat yuritgan. 2023 yilga kelib, 3751 ga yaqin baliqchilik xo'jaliklari tashkil etildi. 2022 yilda 177 ming tonna baliq yetishtirilgan bo'lsa, 2023 yilning oxiriga kelib, ushbu ko'rsatkich 180 ming tonnaga yetkazildi. Baliqchilikni yanada rivojlantirish uchun bir qator juda muhim muammolarni, xususan, baliqchilik xo'jaliklarining barqarorligi, boshqarish mexanizmini ishlab chiqish kerakligi, eng muhimi, ularning samaradorligini oshirish bilan bog'liq masalalarni hal qilishni qat'iy talab etmoqda. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, baliq yetishtirish hajmini keskin oshirish va intensiv texnologiyalarning ulushini ortib borishini ta'minlash bugungi kunning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Respublikamizda faoliyat olib borayotgan sun'iy baliqchilik xo'jaliklarini rivojlantirish hamda faoliyatini tubdan isloh qilish, rivojlantirish asosiy

masalalardan biri hisoblanadi. Shu bois, sun'iy baliqchilik xo'jaliklarini ko'paytirish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, baliq yetishtirish hajmini oshirishda ularning salmog'ini oshirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda (3-jadval).

3-jadval

**Respublikadagi sun'iy baliqchilik xo'jaliklari to'g'risida
ma'lumot (2024-2025y)**

№	Hududlar nomi	Sun'iy xo'jaliklar soni	Baliq xovuzi tashkil qilingan maydon
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	560	2636
2	Andijon	660	5711
3	Buxoro	353	1207
4	Jizzax	242	5694
5	Qashqadaryo	379	1710
6	Navoiy	251	1743
7	Namangan	390	6462
8	Samarqand	409	13841
9	Surxondaryo	448	1672
10	Sirdaryo	303	948
11	Toshkent	549	7276
12	Farg'ona	413	6188
13	Xorazm	953	7339
	Respublika jami:	5910	62427

3-jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsa, sun'iy baliqchilik xo'jaliklari 2022-2023 yillar mobaynida jami 5910 tani tashkil etgan bo'lib, asosan Xorazm, Andijon, Qoraqalpog'iston Respublikasida yangi xo'jaliklarni tashkil etish bo'yicha yetakchi hisoblansa, baliq xovuzlarini tashkil etishda yer maydonlari bo'yicha Samarqand, Xorazm, Toshkent, Farg'ona viloyatlarida yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Asosiy ko'rsatkichlarni hisobga olish hamda ularni tahlil qilishda hududlarning salohiyati, reliefi, suv zahiralari muhim sanaladi.

Yurtimizda baliqchilik, ayniqsa, so'nggi yillarda jadal sur'atlar bilan rivojlanib boryapti. Hududlarda sun'iy ko'llarni ko'payishtirish, baliqchilik xo'jaliklariga qulay sharoit yaratish, tarmoqqa zamonaviy texnologiyalar joriy qilish, ayniqsa, intensiv usulda baliq va baliq mahsulotlari yetishtirish samarali natija bermoqda. Bunga erishishda, intensiv usulda baliqchilik mahsulotlari yetishtirish hajmlarini oshirish uchun yer maydonlari ajratilib, intensiv suv havzalari barpo etilmoqda. Qishloq joylarda aholini ish bilan ta'minlash va daromadlarini oshirishda, aholi xonadonlarida intensiv usulda baliq yetishtirish hajmlari ortib, kooperatsiya usulida "xonadon-kooperatsiya-klaster" tizimi yo'lga qo'yildi. Xususan, 2018-2022 yillarda respublikamizda intensiv usulda baliq yetishtirishga alohida e'tibor qaratilib, hosildorlikni oshirish va samaradorlik oshishiga erishildi. Shunindек, ushbu davr mobaynida intensiv suv havzalari barpo etildi (4-jadval).

4-jadval

Respublikada 2021-2025 yillarda barpo etilgan intensiv suv havzalari to'g'risida ma'lumot

№	Hududlar	2021 yilda		2022 yilda		2023 yilda		2024 yilda		2025 yilda		2025 yilda 2021 yilga nisbatan o'zgarishi (%)	
		maydon (gektar)	quvvati (tonna)	maydon (gektar)	quvvati (tonna)	maydon (gektar)	quvvati (tonna)	maydon (gektar)	quvvati (tonna)	maydon (gektar)	quvvati (tonna)	maydon (gektar)	quvvati (tonna)
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	6	55	6	55	12	115	165	1650	250	2500	4166	4545
2	Andijon	6,4	1048	13,4	1572	114,7	2294	460	4600	680	6800	10625	648
3	Buxoro	6	200	12	300	14	460	254	2450	320	3200	5333	1600
4	Jizzax	33	470	34	500	38	670	200	2450	520	5200	1575	1106
5	Qashqadaryo	8	500	45,8	1250	88,8	1660	330	2000	480	4800	6000	960
6	Navoiy	1	100	15,3	250	20,3	900	160	3300	510	5100	51000	5100
7	Namangan	10	360	67	540	67	1165	240	1600	470	4700	4700	1305
8	Samarqand	7,2	1210	8,2	1300	17,2	2608	310	2400	460	4600	6388	380
9	Surxondaryo	1,5	150	20	375	15	970	170	3100	250	2500	16666	1666
10	Sirdaryo	7,5	110	7,5	110	14	360	195	1700	375	3750	5000	3409
11	Toshkent	13	570	42,2	1025	59,2	1480	235	1950	550	5500	4230	964
12	Farg'ona	105	1250	146,6	2500	151,6	1800	205	2350	535	5350	509	428
13	Xorazm	37	740	55	1332	79	2167	305	3050	570	5700	1540	770
	Jami	241,6	6763	473	11109	690,8	16649	3229	32600	5970	59700	2471	882

4-jadval ma'lumotlari tahlil qilinganda, respublikamizda 2025 yilda 5970 gektar maydonda intensiv suv havzalari barpo etilib, ularning quvvati 59700 tonnani tashkil etadi. 2021 yilga nisbatan tashkil etilgan maydon hajmi 2471 foizga, baliq mahsulotlari yetishtirish quvvati 882 foizga ortganligini alohida ta'kidlash lozim bo'ladi.

Umuman olganda, baliq mahsulotlari yetishtirishda intensiv usul va klaster tizimining vujudga kelishi baliqchilikni yangi sifat bosqichga olib chiqmoqda. Intensiv suv havzalarida yetishtirilgan baliq mahsulotlari aholini arzon va sifatli baliq mahsulotlari bilan ta'minlash, umumiy ovqatlanish shaxobchalari, yirik va kichik savdo markazlari hamda dehqon bozorlariga yetkazib berilmoqda.

XULOSA

O'zbekistonda baliqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, iqtisodiy rahbatlantirish, servis xizmati samaradorligini oshirishga oid bir qator muhim qarorlar qabul qilingani, ushbu tarmoqni har tomonlama qo'llab-quvvatlayotgani alohida ta'kidlash joizdir. Xususan, Rossiya, Xitoy, Vyetnam, Eron, Vengriya, Turkiya va boshqa mamlakatlarda imtiyozlar berilishi, innovatsion va intensiv texnologiyalar joriy etilishi aholisini baliq mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishga erishilmoqda. Shu bois, mamlakatimizdagi baliqchilik korxonalarining rahbar va xodimlari malakasini oshirish orqali, intensiv baliqchilikni yuqori samara berishi, daromadlarini oshishi, aholini bandlini ta'minlash muhim tarmoq ekanligini to'g'risida seminar-treninglar, konferensiyalar va boshqa tadbirlarni muntazam ravishda o'tkazish lozim bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib nafaqat xo'jaliklar balki baliqchilikni rivojlantirishda turli mulkchilik shaklidan biri bo'lgan klasterlarni tashkil qilish shakli mavjud bo'lib, bu shaklda har bir xo'jalik o'z vazifasi va funksiyalarini bajaradi. Ular o'zaro bog'langan bir jamoa sifatida faoliyat yuritadilar. Bunda samarali faoliyatni tashkil etish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Baliqchilik klasterlarni tashkil etish va boshqarishning ushbu shaklida quyidagi tashkiliy-iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish kerak:

birinchidan, o'zaro munosabatda baliq mahsulotlarini yetishtiruvchilarga, qayta ishlab chiqaruvchi hamda tayyor mahsulot sifatida ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'lovlarni ma'qbul muddat va shakllarda amalga oshirish imkonini berish;

ikkinchidan, baliq mahsulotlari ishlab chiqaruvchi xo'jalik subyektlari jumladan, fermer xo'jaliklari, klasteralar, dehqon xo'jaliklari, MCHJlarni rag'batlantirish maqsadida ular uchun intensiv texnologiyalar, jihozlar xarid qilish, mahsulot tashuvlarni amalga oshirishdagi muammolar, baliq mahsulotlarini saqlash uchun shart-sharoitlar yaratish yo'li bilan qayta ishlovchi korxonalarining investitsiyalarni mazkur tizimlarga jalb qilish bo'yicha tashkiliy-huquqiy mexanizmni ishlab chiqish;

uchinchidan, turli mulkchilik subyektlari hamda baliq mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar o'rtasida tuzilgan shartnoma bo'yicha majburiyatlarini

bajarmagan hollardagi ma'suliyatni oshirish bo'yicha normalar ishlab chiqish lozim;

to'rtinchidan, turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik xo'jaliklar bilan hamkorlikda faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning mehnat natijalari bo'yicha rag'batlantirish tizimini yaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Beglayev U.X. Baliqchilik xo'jaliklarini rivojlanntirish va boshqarish. // Monografiya. – T.: “Navro'z”, 2020, – 131 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 maydagi «Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2939-sonli qarori // “Xalq so'zi” gazetasi, 2017 yil 3 maydagi 87 (6781)-soni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 apreldagi “Baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3657-son qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.04.2018 y., 07/18/3657/1027-soni.

4. Beglayev U.X. Baliqchilik xo'jaliklarini barqaror rivojlantirishda Vyetnam tajribasidan foydalanish. // “Innovatsion va raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. Materiallar to'plami SamISI. 2020 y. 236-240- betlar.

5. Ergashev R.X. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. – T.: Moliya-iqtisod, 2018. – 394 b.

6. Камиллов Б.Г., Мирзаев У.Т., Мустафаева З.А. Садковая аквакультура-перспективная система разведения рыб в Узбекистане. Руководство для фермеров-рыбоводов. Ташкент, 2017. с.61.

7. Elmurodova B. Baliq mahsulotlari ishlab chiqarishning ko'p bosqichli jarayonlarini modellashtirish. // J.: O'zbekiston qishloq xo'jaligi. №8, 2016. 42 b.

8. Beglayev U., Boltayev N. Baliqchilik xo'jaliklarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari. // Agroiqtisodiyot №3(6). 2018 y., 63-65- b.